FARZAND TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ MAROSIMLARNING ETNOGRAFIK TADQIQI (BESHIK TO‘YI MISOLIDA)

Otaboyeva Ro‘za Qahramon qizi,
Urganch innovatsion universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 23/02-guruhi talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19815090

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalqining farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlari, xususan, beshik to‘yi urf-odatlari etnografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda marosimlarning tarixiy ildizlari, ularning ijtimoiy va madaniy funksiyalari, shuningdek, Xorazm vohasiga xos xususiyatlari yoritilgan. Beshik to‘yi nafaqat oilaviy quvonch ifodasi, balki avlodlar davomiyligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholanadi. Maqolada tug‘ilishdan boshlab chilla davri, ism qo‘yish, beshikka belash, himoya va magik tasavvurlar bilan bog‘liq urf-odatlar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, an’anaviy marosimlarning zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur marosimlar xalqning etnomadaniy xotirasini saqlashda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *marosim, urf-odat, beshik to‘yi, chilla, etnografiya, an’ana, Xorazm vohasi.*

Аннотация*. В данной статье с этнографической точки зрения анализируются обряды узбекского народа, связанные с рождением ребёнка, в частности традиции обряда «бешик туй» (праздник колыбели). В исследовании освещаются исторические корни обрядов, их социальные и культурные функции, а также особенности, характерные для Хорезмского оазиса. Обряд «бешик туй» рассматривается не только как выражение семейной радости, но и как важный социальный институт, обеспечивающий преемственность поколений. В статье комплексно анализируются обычаи, связанные с периодом после рождения ребёнка, включая «чилла», наречение имени, укладывание в колыбель, а также защитные и магические представления. Кроме того, рассматривается трансформация традиционных обрядов в условиях современного общества. Результаты исследования показывают, что данные обряды играют важную роль в сохранении этнокультурной памяти народа.*

Ключевые слова: *обряд, традиция, бешик туй, чилла, этнография, обычай, Хорезмский оазис.*

Abstract*. This article provides an ethnographic analysis of Uzbek folk rituals associated with childbirth, particularly the traditions of the beshik toy (cradle ceremony). The study explores the historical roots of these rituals, their social and cultural functions, as well as features specific to the Khorezm oasis. The beshik toy is interpreted not only as an expression of family joy but also as an important social institution that ensures generational continuity. The article offers a comprehensive analysis of customs from birth onward, including the chilla period, naming practices, placing the child in the cradle, and rituals related to protection and magical beliefs. Additionally, the transformation of traditional rituals in modern society is examined. The findings indicate that these rituals play a significant role in preserving the ethnocultural memory of the people.*

Keywords*: ritual, custom, beshik toy, chilla, ethnography, tradition, Khorezm oasis.*

Kirish. Marosim fenomeni ilmiy adabiyotlarda ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etiladi. Turli ilmiy maktab vakillari uni har xil nuqtai nazardan izohlaydi: ayrim tadqiqotchilar marosimni jamiyatdagi ijtimoiy tartib

va barqarorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida baholasa, boshqalar uni insonlar o‘rtasidagi ramziy muloqot shakli, ya’ni ma’no almashinuvi vositasi sifatida ko‘radi. Shu bois marosimlar nafaqat tashqi ko‘rinishdagi harakatlar yig‘indisi, balki chuqur semantik va madaniy mazmunga ega tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek etnografik an’anasida marosimlar urf-odatlar majmuasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Biroq bu ikki tushuncha o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Xususan, urf-odatlar kundalik hayotda muntazam takrorlanib boradigan odatiy xatti-harakatlarni ifodalasa, marosimlar muayyan voqea yoki hodisa bilan bog‘liq ravishda maxsus tashkil etiladigan, qat’iy tartib va ramziy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy amaliyotlardir. Shu nuqtai nazardan, har bir marosim urf-odatlar tizimiga kiradi, ammo har bir urf-odat marosim darajasiga ko‘tarilavermaydi. Bu esa marosimlarning yanada murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Etnografik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, marosimlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida shakllanib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida evolyutsion tarzda rivojlanadi. Ular jamiyatning tarixiy xotirasini saqlash, kollektiv tajribani mustahkamlash hamda ijtimoiy identifikatsiyani ta’minlash kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, inson hayotining muhim o‘tish bosqichlari — tug‘ilish, nikoh va vafot bilan bog‘liq marosimlar jamiyatning qadriyatlar tizimini eng yaqqol ifoda etuvchi hodisalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar o‘zbek xalqining an’anaviy madaniyatida muhim etnomadaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu marosimlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va ramziy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab madaniy institut hisoblanadi . Shu bois ular nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondiruvchi amaliyot, balki kollektiv ong va ijtimoiy identifikatsiyani shakllantiruvchi vosita sifatida ham talqin etiladi.

Marosim va urf-odat o‘rtasidagi nisbatni aniqlash mazkur masalani tushunishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Urf-odatlar kundalik takrorlanuvchi ijtimoiy amaliyotni ifodalasa, marosimlar muayyan voqea bilan bog‘liq holda maxsus tashkil etiladigan, qat’iy struktura va ramziy mazmunga ega ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi . Shu jihatdan, beshik to‘yi marosimi biologik tug‘ilish jarayonining ijtimoiy-madaniy legitimatsiyasini ta’minlovchi muhim institut sifatida talqin qilinadi.

Mahmud Sattor hamda boshqa tadqiqotchilar ishlarida tug‘ilish bilan bog‘liq marosimlarning empirik tavsifi, jumladan, chilla davri, beshikka belash jarayoni va marosimiy atributlar yoritilgan. Biroq ushbu tadqiqotlar ko‘proq tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, marosimlarning ichki semantikasi va funksional mazmunini chuqur tahlil

qilish zaruratini ko‘rsatadi. Dala materiallari esa marosimlarning hududiy variativligini, xususan Xorazm vohasiga xos lokal xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi .

Shuningdek, mifologik qarashlar va magik tasavvurlar tug‘ilish marosimlarining semantik asosini tashkil etadi. Inson tanasi, soch, tug‘ilishdagi alomatlar bilan bog‘liq e’tiqodlar marosimiy amaliyotlarda o‘z aksini topib, ularning qadimiy e’tiqodlar bilan genetik bog‘liqligini namoyon etadi . Bu esa marosimlarni tahlil qilishda simvolik va antropologik yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlarni o‘rganishda kompleks etnografik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida marosimlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishini aniqlash uchun tarixiy-etnografik metoddan foydalanildi.

Shuningdek, tavsifiy metod asosida beshik to‘yi bilan bog‘liq amaliy jarayonlar — chilla davri, beshikka belash va marosimiy udumlar tizimli tarzda bayon qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida umumiy an’analar bilan Xorazm vohasiga xos hududiy xususiyatlar o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Marosimlarning ichki mazmunini ochishda simvolik va antropologik yondashuv qo‘llanilib, ularning ramziy va magik asoslari talqin qilindi. Tadqiqotning empirik bazasini dala materiallari va yozma manbalar tashkil etib, ular ilmiy umumlashtirish orqali tahlil qilindi.

Muhokama. Tadqiqot materiallari asosida aniqlanishicha, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar o‘zbek xalqining an’anaviy dunyoqarashi, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog‘langan murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu marosimlar nafaqat biologik tug‘ilish jarayonini rasmiylashtiradi, balki yangi tug‘ilgan chaqaloqni jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy muhitiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish vazifasini bajaradi.

Xususan, chaqaloq qulog‘iga azon aytilishi va ism qo‘yish marosimlari bolaning diniy hamda ijtimoiy identifikatsiyasining boshlang‘ich bosqichi sifatida talqin qilinadi. Chilla davri esa izolyatsiya va himoya mexanizmi bo‘lib, unda ona va bola tashqi salbiy ta’sirlardan asrashga qaratilgan qadimiy qarashlar mujassam. Bu holat marosimlarning nafaqat amaliy, balki profilaktik va magik funksiyalarni ham bajarganini ko‘rsatadi.Xalq tasavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta’siridan eson-omon asrash ularning chilla davri (chilla — forscha “chihil” — qirq degan ma’noni bildiradi) tartib-qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog‘liq bo‘lgan[1,b.79].

Beshik to‘yi marosimi esa ushbu tizimning markaziy bo‘g‘ini sifatida ajralib turadi. Unda beshikning o‘zi nafaqat maishiy buyum, balki bolaning ilk ijtimoiy

makoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bir millatning beshigi ikkinchi millatning beshigidan shakli, gullari, naqshlari, yasalishi bilan farqlanadi[2]. Beshikka belash jarayonida bajariladigan amallar - niyat bildirish, shirinliklar sochish, alla aytish - jamoaviylik, baraka va himoya g‘oyalarini ifodalaydi[3]. Ayniqsa, marosimda tajribali ayollarning ishtiroki va ularning alohida maqomi an’anaviy jamiyatda ayollar bilimining va tajribasining muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Beshikning yozgi varianti belanchak ham borki, undan odatda qishloq hududlarida foydalanishadi[4,b.12].

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, marosimlarda qo‘llaniladigan predmetlar va amallar chuqur ramziy ma’noga ega. Masalan, suvga turli elementlar qo‘shish, yostiq ostiga buyumlar qo‘yish yoki beshikka turli narsalar osish orqali himoya va baraka bilan bog‘liq qadimiy magik tasavvurlar ifodalanadi. Shuningdek, chaqaloqning tana belgilariga qarab ism qo‘yish yoki soch bilan bog‘liq udumlar mifologik tafakkurning davomiyligini namoyon etadi.Taniqli folklorshunos olim M.Jo‘rayevning yozishicha, ana shunday mifologik qarashlar xalqimiz orasida soch bilan bevosita aloqador bo‘lgan-“soch to‘yi”, “kokil to‘yi”, “xaydar qo‘yish”, “soch siypatar” singari magik xarakterdagi udumlar yuzaga kelishiga asos bo‘lgan[5, b.17].

Bundan tashqari, beshik to‘yi marosimida qarindoshlik aloqalari va ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi ham muhim o‘rin tutadi[6]. Kelin tomon tomonidan beshik va sarpolar olib kelinishi, jamoaviy tantanalar, sadaqa va ziyofatlar ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat marosimlarning faqat madaniy emas, balki ijtimoiy integratsiya vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda beshik va unga bog‘liq qarashlarga nisbatan turli fikrlar mavjudligi kuzatiladi. Ayrim hollarda beshikdan foydalanishga tanqidiy yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy va gigiyenik afzalliklari, bolaning tinch uyqusi va xavfsizligini ta’minlashdagi roli hanuz e’tirof etilmoqda. Bu esa an’anaviy marosimlarning moslashuvchanligini va ularning zamonaviy sharoitda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar o‘zbek xalqining etnomadaniy tizimida yaxlit va izchil tuzilgan kompleks hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu marosimlar ketma-ketligi — azon aytish, ism qo‘yish, chilla davri va beshik to‘yi — bola tug‘ilishining biologik jarayonini ijtimoiy va madaniy jihatdan mustahkamlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Aniqlanishicha, beshik to‘yi marosimi ushbu tizimning markaziy elementi bo‘lib, u orqali chaqaloq jamoaga tanishtiriladi va ijtimoiy muhitga kiritiladi. Marosimning jamoaviy xarakteri qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash, ijtimoiy

birdamlikni kuchaytirish hamda an’anaviy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida marosimlarning hududiy, xususan Xorazm vohasiga xos jihatlari ham aniqlandi. Jumladan, beshik to‘yining muayyan kunlarda o‘tkazilishi, “5 oqshom” kabi lokal udumlarning mavjudligi, ayollar ishtirokining ustuvorligi marosimning regional xususiyatlarini ifodalaydi. Bu esa marosimlarning umumxalq xarakteri bilan birga, hududiy variativlikka ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, marosimlar tarkibida ramziy va magik elementlarning muhim o‘rin egallashi kuzatildi. Turli predmetlardan foydalanish, himoya amallarini bajarish, shirinliklar sochish kabi udumlar orqali farovonlik, baraka va himoya g‘oyalari ifodalanadi. Bu holat marosimlarning qadimiy e’tiqodiy tasavvurlar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, an’anaviy marosimlar zamonaviy jamiyat sharoitida ma’lum darajada transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, ularning asosiy funksiyalari saqlanib qolgan. Xususan, beshik to‘yi hanuzgacha oilaviy va ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi, milliy qadriyatlarni uzatuvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar o‘zbek xalqining etnomadaniy tizimida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Ushbu marosimlar biologik tug‘ilish jarayonini ijtimoiy va madaniy jihatdan mustahkamlovchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, beshik to‘yi marosimi ijtimoiy integratsiya, avlodlar davomiyligi va madaniy qadriyatlarni uzatishda muhim institut sifatida ajralib turadi. Marosimlar tarkibidagi ramziy va magik elementlar esa xalqning qadimiy e’tiqodiy qarashlari davomiyligini aks ettiradi.

Zamonaviy sharoitda ayrim shakliy o‘zgarishlarga qaramay, marosimlarning asosiy mazmuni va funksiyalari saqlanib qolmoqda. Bu esa ularning etnomadaniy xotirani mustahkamlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 274 б.
2. https://oyina.uz/uz/teahause/390
3. Dala materiallari. Nurullayeva Gulbahor. Xiva tumani. 2026- yil.
4. Mahmud Sattor.O‘zbek udumlari- Toshkent: Cho‘lpon; 2007.– 192 b.
5. Jo‘rayev.M . Soch magiyasi bilan bog’liq marosimlar.O‘zbekiston etnologiyasi. Yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar. Toshkent. 2004.– 147 b.
6. Dala materiallari. Qurbonova Dilbar.Xonqa tumani. 2026- yil.